

## COVID ASSOTSIRLANGAN DIABETIK POLINEYROPATIYANI ERTA TASHXISLASH MEZONLARI

<sup>1</sup>Akbarxodjayeva Z.A.

**Ilmiy rahbar, TTA Nevrologiya kafedrasi assistenti PhD,**

<sup>2</sup>Husnora Fahriiddin qizi

**Muallif, TTA Nevrologiya kafedrasi magistri Ergashova.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7485527>

**Annotatsiya:** Covid assotsirlangan diabetik polineyropatiyani erta tashxislashni yanada takomillashtirish

**Kalit so'zlar:** Covid 19, qandli diabet, polineyropatiya

**Mavzuning dolzarbligi:**

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, Covid 19 pandemiyasi davrida qandli diabet bilan ogruvchi bemorlarda diabetik polineyropatiya bilan asoratlanish darajasi yanada ortib ketdi. Bu esa qandli diabeti mavjud bemorlarda nogironlikning erta rivojlanishi va hayot sifatining yomonlashishiga sabab bo'ladi. Dastlabki bosqichlarda bemorlada kasallikning atipik va yashirin kechishi ushbu patologiyani erta yashxislashni qiyinlashtiradi. Pandemiya davrida kasallanishlar sonining ortishi hamda pandemianing uzoq vaqt davom etishi ushbu patologiyaning dolzarbligini ko'rsatadi hamda asoratlarning oldini olish uchun erta tashxislash va davolah algoritmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

**Material va metodlar**

Ushbu tezisda qandli diabet bilan kasallangan sezuvchanlikning qo'lqop va paypoq tipida buzilishi, pay reflekslarining susayishi yoki yo'qolishi, onemeniya, oyoq kaftida paresteziya va dizesteziya, achishish kabi klinik nevrologik buzilishlari bo'lgan hamda 2021 yil avgust oyidan 2022 yil fevral oyigacha TTA I klinikasi Nevrologiya va Endokrinologiya bo'limlariga murojaat qilib kelgan 30 ta bemorda klinik nevrologik o'zgarishlar natijalari keltirilgan. Tekshirilgan bemorlar jinsiga ko'ra quyidagicha taqsimlanadi: ulardan 14 tasi (46,7%) erkaklar, 16 tasi( 53,3%)ni esa ayollar tashkil etadi. JSST ning yosh bo'yicha klassifikatsiyasi (2016y)ga ko'ra esa 12 ta bemor (40 %) o'rta yoshli (45-59 yosh), 11 bemor (36,7%) keksa (60-74yosh) qolgan 7 ta (23,3%) esa qarilar (75-90 yosh). Tekshirilayotgan bemorlarda klinik nevrologik o'zgarishlarni o'rganish va diabetic polineyropatiyani erta tashxislash kriteriyalarini ishlab ishlab chiqish uchun quyidagi klinik-laborator usullardan foydalanildi: anamnez yig'ish, nevrostatusni dinamik tekshirish, qonda qand miqdorini tekshirish, IPSWICH touch test.

**Natijalar:** Bemorlar nevrostatusini o'rganish davomida 70% bemorlarda tizza va axill reflekslarining yo'qolishi, 30% bemorlarda ushbu reflekslaning o'zgarmaganligini ko'rish mumkin. Qon biokimyoviy tahlilida (qonda qand

miqdori tekshirilganda) bemorlarning 60% qismida qonda qand miqdori 9 mmol/l dan yuqoriligi, 25% bemorlarda 5,5 – 9,0 mmol/l oralig’ida ekanligi, 15% bemorlarda esa norma holatida ekanligi aniqlandi. O’tkazilga IPSWICH touch test natijalariga ko’ra tekshirilgan bemorlarning 18 tasi (60%) da ko’rsatkich  $>2$ , 7 tasi (23,3%) = 2, qolgan 5 tasi (16,7%) da esa  $<2$ . Test natijalari shuni ko’rsatadiki 83,3% bemorlarda test natijalari musbat ( $\geq 2$ ). Bu esa ularda diabetik oyoq kafti rivojlanish xavfi yuqori ekanligini ko’rsatadi.

**Xulosa:**

O’tkazilgan klinik-laborator tekshiruvlar va sensor test natijalariga ko’ra shuni aytish mumkinki, uzoq vaqt giperglykemik holatda yurish diabetic polineyropatiyaning rivojlanish xavfini bir necha bor tezlashtiradi.

Covid assotsirlangan diabetic polineyropatiyaning diagnostic kriteriyalari

- Bemorlarning asosiy qismi o’rta (40%) va keksa (36,7%) yoshlilar
- Laborator tekshiruvlarda qonda qand miqdorining yuqoriligi
- Sensor IPSWICH touch testi yuqori musbat natija berishi